

***JARGON, SLENG, ARGO VA PROFESSIONALIZM TUSHUNCHALARIGA OID
NAZARIY QARASHLAR.***

Hakimova Zamira Xurram qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktorantura birinchi kurs doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqola tilshunoslikdagi jargon, sleng, argo va professionalizm tushunchalariga oid nazariy qarashlarni tahlil qiladi. Jargon — ma'lum bir kasb yoki guruh vakillari tomonidan ishlatiladigan, maxsus so'z va iboralar to'plami. Sleng — kundalik suhbatlarda qo'llaniladigan norasmiy va ko'pincha yangi yoki o'zgaruvchan leksika. Argo — odatda jamiyatning chekka guruhlari yoki subkulturalarida ishlatiladigan, yashirin yoki norasmiy til shakli. Professionalizm esa ma'lum bir kasb doirasidagi maxsus leksika va terminologiyadir. Ushbu maqolada ushbu tushunchalarning aniqlanishi, ularning xususiyatlari va amaliy qo'llanilishi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, bu tushunchalar orasidagi farqlar va ularning jamiyatdagi o'rni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Jargon, Sleng, Argo, Professionalizm, Tilshunoslik, Maxsus leksika, Terminologiya, Ijtimoiy guruh, Subkultura, Norasmiy til.

O'zbek milliy adabiy tili garchi umumxalq tilidan o'sib chiqqan bo'lsa ham, unda mavjud bo'lgan dialektlar va shevalar, jargonlar, oddiy so'zlashuv tilidan, umuman, xalq tilidan ba'zi jihatlari bilan farq qiladi. Chunki umumxalq tili o'zbek tilida uchraydigan barcha elementlarni o'z ichiga oladi va ishlanmagan shaklda bo'ladi. Adabiy til esa undan o'zbek millati uchun tushunarli bo'lgan va foydalanishda qulay deb topilgan variantlarni tanlab oladi hamda ularni millat vakillari uchun me'yori sifatida tavsiya etadi. Tilshunoslikda jargon, sleng, argo va professionalizm tushunchalari alohida ahamiyatga ega bo'llib, har birining o'ziga xosligi va qo'llanilishi bor. Ushbu tushunchalar tilning rivojlanishi va jamiyatdagi turli guruhlar o'rtaсидаги muloqotni o'rganishda muhim rol o'ynaydi. Shunga ko'ra, tilshunosliklar, xususan, xorijiy lingvistlar tomonidan boshqa til birliklari singari jargonlar ham muhim o'rganish obyekti bo'lib kelmoqda. Har bir tildagi uslub turlari uchun umumiyy bo'lgan shu tilning umumiyy lug'at fondi, shakllar va sintaktik qurilmalar, erkin va turg'un birikmalar bo'ladi. Bu esa uslub turlarining hammasini bir milliy adabiy tilga birlashtiradi. So'zlashuv nutqining dolzarb harakterdagi mazmunini shakllantirish uchun ushbu uslubga xos fonetik, leksik, grammatic normalardan o'rinli foydalanish lozim bo'ladi. Adabiy tilning stilistik me'yori til birliklarining nutqida sharoit, ko'zda tutilgan maqsaddan kelib chiqib eng ma'qulini qo'llash zaruratidan paydo bo'ladi. Bu uslublarning har biriga xoslangan grammatic shakllar, so'z, so'z birikmasi, gap va intonatsion vositalar mavjud. Ana shu xoslanish o'zbek adabiy tili uslubiy me'yorlarining assosidir.

Jargon — bu ma'lum bir kasb yoki ijtimoiy guruh a'zolari tomonidan ishlatiladigan maxsus leksika. Jargon ko'pincha murakkab texnik yoki professional terminologiyani o'z ichiga oladi. Masalan, tibbiyotda "anemnesis" yoki "auskultatsiya" kabi so'zlar, IT sohasida "algoritm" yoki "firewall" kabi terminlar jargon sifatida kiritilishi mumkin. Jargon so'zлari odatda keng omma uchun tushunarsiz bo'lib, faqatgina ma'lum bir soha vakillari tomonidan tushuniladi. Jargon atamasi dunyo tilshunosligida quyidagi ma'nolardan kelib chiqqan deb tushuniladi: – jargon yahudiy tilining eskirgan nomi; – jargon – qimmatbaho tosh, olmos porlashi bilan sariq sirkon; – jargon ijtimoiy dialektidir. Biz tadqiqotimizda jargonning ijtimoiy dialekt ma'nosidan kelib chiqib mulohazalar yuritamiz. "Jargon" so'zi eski fransuz tilidagi "jargone" so'zidan olingan. Turli tillarda bu atama turli nomlar ifodalanib kelingan. Xususan, eski italyan tilida "Gergone", ingliz tilida "slang" atamasi ishlatiladi (hozirda bu atamadan italyan tilida ham keng foydalilmoxda). Ispan tilida XVI asrda vujudga kelgan "Jeriganza" so'zidan olingan "jerga" qisqartmasi jargon so'zi o'rnida ishlatilgan bo'lsa, Portugal tilida "girigaza" so'zi ayni shu ma'noni anglatadi. Ijtimoiy jargon (dialekt) odatda ongli yoshda orttirilgan va ba'zi bir ijtimoiy korporatsiyaga qo'shilish bilan bog'liq bo'lgan nutq normasi sifatida tushuniladi, unga ko'ra, tug'ilishdan boshlab (professional jargon, o'g'rilar nutqi)



tegishli bo'lishi mumkin emas, bunday me'yordan foydalanish o'zini ushbu jamiyatning a'zosi sifatida tushunishni o'z ichiga oladi va jamiyatning o'zi tegishli nutq xatti-harakatlari huquqini yashirincha tartibga soladi. Jargonni o'zlashtirish har doim ko'proq yoki kamroq sun'iy xarakterga ega bo'lib, ma'lum bir ijtimoiy guruhni jamiyatning qolgan qismidan ajratib qo'yish va unga qarshi turishga ongli intilish bilan bog'liq. Jargonlar sun'iy yaratiladi degan qarashlar mavhumdir. Chunki jargon jonli nutq sharoitida tug'iladi va yashaydi. Uni sun'ylashtirish yoki qolipga solish jargonning "o'lim" iga sabab bo'ladi. Tilshunoslikda jargonlar haqida turli qarashlar mavjud bo'lib, fikr bildirgan olimlar ko'proq jargonlarning adabiy tilga munosabati nuqtayi nazaridan yondoshganliklarini kuzatish mumkin. Umumi jargonning xalq tilidan farqi uning so'z boyligi va frazeologiyasidadir. Jargon argoning sinonimidir, uning argodan farqi shundaki, jargon salbiy (haqorat, yoqtirmaslik) ma'nosida qo'llaniladi.

Sleng — kundalik suhbatlarda ishlataladigan, norasmiy va ko'pincha yangi yoki o'zgaruvchan leksika. Sleng so'zları va iboralari odatda yoshlar yoki boshqa ijtimoiy guruuhlar tomonidan qo'llaniladi va ular ko'pincha tezda o'zgarib turadi. Sleng so'zları ko'pincha kontekstga bog'liq bo'lib, bir guruh ichida yaxshi tushuniladi, ammo boshqa guruuhlar uchun notanish bo'lishi mumkin. Sleng-so'zlashuv nutqi dunyo tillarining hammasiga xos hodisadir. Har qanday til jamiyatga aloqador va jamiyatdan tashqarida o'ziga, alohida rivojiana olmaydi. Til, avvalombor, jamiyatimiz odamlarning o'zaro muloqot vositasidir, shu sababli jamiyat-odamlar til leksikasining shakllanishiga bevosita aloqadordir. So'zlashuv nutqi gaplashuvchilarining bevosita, dialogik formada so'zlagan betakalluf, erkin nutqidir. Ushbu nutq til materiallariga ko'ra adabiy, dialektal, oddiy nutq yoki qorishiq ko'rinishlariga ham ega bo'lishi mumkin. Shularni hisobga olib sleng-so'zlashuv nutqiga xosligi ko'rsatib o'tamiz. Ijtimoiy yoki professional ravishda ajratilgan guruhning nutqi: (jargon, oddiy) og'zaki leksikaga xos so'zlar. So'zlashuv uslubida ishlatalish doirasi chegaralangan qatlamga doir lug'aviy birliklar turlicha bo'ladi. Chegaralangan qatlam territoriyaga, kasb- korga tegishliligi bilan farqlanadi. Shuni hisobga olib, jargonlarga xos bo'lgan so'zlarni o'rganish, o'zbek so'zlashuv nutqida qanday imkoniyatlar borligini aniqlash uchun dialektlarga, shevalarga, fantexnikaga, kasblarga tegishli so'zlarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Argo — bu yashirin yoki norasmiy til shakli bo'lib, odatda jamiyatning chekka guruhlari yoki subkulturalarida ishlataladi. Argo so'zları ko'pincha qasddan yashirin ma'nolarni ifodalaydi va maxfiylikni ta'minlash uchun ishlataladi. Masalan, jinoyatchilar yoki kontrabandachilar o'zaro muloqotda foydalanadigan maxsus til argo hisoblanadi. Argolar ham jargon so'zlar kabi biror ijtimoiy guruh yoki toifalarning, masalan, sportchilar, o'g'rilar, olibsotarlar, poraxo'rlar va boshqalarning "yasama tili"dir. Argotizmlar yashirin ma'no ifodalaydi. Argolar qiziqishlari, mashg'ulotlari, yoshlari bir xil bo'lgan juda tor doira (guruh)ga mansub kishilar qo'llaydigan, ma'nosi shunday kishilarga tushunarli bo'lgan so'zlardir. Ular umumuxalq tiliga oid so'zlardan bo'lsa-da, ammo bunday so'zlar ham keng xalq ommasiga tushunarli bo'lmaydi. Shu jihatdan argolar jargonlarga o'xshaydi. Argotizm va jargonizmlar asosan, jonli so'zlashuvda tor doirada ishlarijadi. Ulardan badiiy asarda obraz va personajlarni tipiklashtirish maqsadida foydalanish hollari uchraydi. Jargonlar va argolar tilni bulg'aydi. Tilning sofligi va tozaligi, aniqliligi va ravshanligi uchun jargonlarga qarshi kurashni ham taqozo qiladi. U bo'lsa, ichkaridan kattaroq odam chiqarmikin, degan umidda birpas odob saqlab turadi-yu, hech kimdan darak bo'lavermaganidan keyin bir qo'llab velosipedni rulidan ushlaydi, ikkinchi qo'liga "uch oyog'i"ni olib, ikkilanibroq ichkariga kiradi. Lekin badiiy adabiyotda stilistik maqsadda jargonlardan qisman foydalaniladi. Jargonlar ma'lum ijtimoiy tabaqa yoki guruhlar o'rtasida tarqalganligidan, ular shu toifa kishilar nutqini berish vositasi sifatida ishlataladi.

Professionalizm — ma'lum bir kasb doirasidagi maxsus leksika va terminologiya. Bu so'zlar va iboralar professional kommunikatsiyani osonlashtirish uchun ishlataladi. Masalan, huquqshunoslikda "prava", "kodifikatsiya" kabi terminlar, iqtisodiyotda "diversifikatsiya", "kapitalizatsiya" kabi so'zlar professionalizmning namunalarini bo'lib hisoblanadi. Professionalizm odatda yuqori darajada rasmiy va aniq bo'ladi. Tilshunoslikda professionalizm tushunchasi tilning kasbiy doiralaridagi qo'llanilishi va o'ziga xos leksikani ifodalaydi. Bu tushuncha tilning rivojlanishi, muloqotning aniq va tushunarli bo'lishi hamda turli sohalardagi mutaxassislar o'rtasidagi aloqalarni osonlashtirish uchun muhim



ahamiyatga ega. Ushbu maqolada professionalizmning tilshunoslikdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Professionalizmning Ahamiyati

1. Aniklik va Tushunararlilik: Professionalizm kasbiy muloqotni aniq va tushunarli qiladi. Masalan, tibbiyot, huquqshunoslik, muhandislik va boshqa sohalarda ishlataladigan maxsus terminologiya bu sohalar vakillarining bir-birini to'g'ri tushunishiga yordam beradi.

2. Standartlashuv: Professional terminologiya standartlashtirilgan bo'lib, u kasbning barcha vakillari uchun bir xil ma'noni anglatadi. Bu esa global muloqotni osonlashtiradi va xatoliklarni kamaytiradi.

3. Mutaxassislik va Ta'llim: Professionalizm mutaxassislik darajasini oshiradi va yangi mutaxassislarni o'qitishda muhim rol o'ynaydi. Maxsus leksika va terminologiyani o'zlashtirish mutaxassislarning bilim va ko'nikmalarini oshiradi.

4. Kasbiy Obro': Professionalizm kasb obro'sini oshiradi. Kasbiy muloqotda aniq va to'g'ri terminologiyani ishlatish mutaxassisning malakasini va kasbiy qobiliyatlarini ko'rsatadi.

Professionalizm tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega bo'lib, kasbiy muloqotni aniq, tushunarli va samarali qilishga xizmat qiladi. Professional leksika va terminologiya kasbiy aloqalarni osonlashtiradi, standartlashuvni ta'minlaydi va mutaxassislik darajasini oshiradi. Tilshunoslikda professionalizmni o'rganish lingvistik tahlil va tadqiqotlarda muhim rol o'ynaydi, bu esa tilning kasbiy doiralardagi rivojlanishini tushunishga yordam beradi.

Nazariy Qarashlar. Tilshunoslikda jargon, sleng, argo va professionalizm tushunchalari o'rtasidagi farqlarni aniqlash muhimdir. Ularning har biri o'ziga xos vazifani bajaradi va turli kontekstlarda qo'llaniladi. Jargon va professionalizm ko'proq rasmiy va kasbiy kontekstlarda qo'llanilsa, sleng va argo ko'proq norasmiy va ijtimoiy guruhlarga xosdir.

Xulosa: Jargon, sleng, argo va professionalizm tushunchalari tilshunoslikda muhim o'rinni egallaydi. Ularning har biri jamiyatdagi turli guruhlar o'rtasidagi muloqotni o'rganishda va tilning rivojlanishini tushunishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu tushunchalarni aniqlash va ularni to'g'ri qo'llash jamiyatdagi muloqotni yaxshilashga yordam beradi. So'zlashuv nutqi mahsuli bo'lgan jargonlarni to'plash biroz mushkul vazifa bo'lib, ijtimoiy guruhlarning har biri ishlataladigan jargonlarni yig'ib tahlil qilish tilning sotsial xoslanishini o'rganish yo'lidagi muhim qadamdir. Jargonlar faqat undan foydalanuvchilarga muhim vosita bo'lib, ma'lum vaziyatlarga xizmat qilish uchun xoslangan, tilning leksik tarkibiga ta'sir qilmaydi, balki ijtimoiy guruh uchun muhim bo'lgan vaziyatlarda foydalanishga tilning semantik sathidan ko'mak oluvchi til birligidir. So'ngi yillarda yoshlar tili fonomen tildek va madaniyatni egallashga yana va yana kuchli ta'sir ko'rsatib bormoqda: jargonlar nafaqat so'zlashuv nutqiga faol kirib kelmoqda va yana OAV vositalarida ham keng qo'llanilib bormoqda, zamonaviy adabiyotning yetakchi uslubiga aylanmoqda. Shu munosabat bilan til va nutq madaniyatida qator dolzarb muammolar mavjud bo'lmoxda.

References:

1. R.Sayfullayeva va boshqalar. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". 125-126-betlar.
2. Jamolxonov X. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". Toshkent. "Talqin". 2005. 202-203-betlar.
3. Jamolxonov X. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". Toshkent. "Talqin". 2005. 202-203-betlar.
4. Begmatov, E, Ne'matov, H, Rasulov, R. 1989. Leksik mikrosistema va uning tadqiq metodikasi (sistem leksikologiya tezislari) // O'zbek tili va adabiyoti jurnali. 6-son.
5. Iskandarova, Sh. (2005). O'zbek tili leksikasini semantik maydon sifatida o'rganish (shaxs mikromaydoni). Filol. fanlari dokt. ... dis. avtoreferati. –Toshkent.

